


NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 738,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 57,4 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO
AYLANMASI VA
BALANSI**
(yanvar-avgust,
mln. AQSh
dollarini)



Ma`lumot uchun: Navoiy viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o`rinlarda TIF TN) bilan birlashtiriladi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlataladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**NAVOIY VILOYAT
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020- yil
yanvar-avgust,
mln. AQSh
dollarasi, ulushi,
% da)**

TSA da eksport hajmi 285,7 mln. AQSh dollariga (2019- yilning mos davriga nisbatan 122,2 foizni) va import hajmi 453,2 mln. AQSh dollariga (2019- yilning mos davriga nisbatan 43,0 foizni) tashkil qilmoqda. Hisobot davrida - 167,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	116,3	28,0	88,3	15,7
Rossiya Federatsiyasi	108,9	23,2	85,7	14,7
Kanada	78,9	77,9	1,0	10,7
Fransiya	74,6	71,0	3,6	10,1
Litva	45,0	2,7	42,3	6,1
Turkiya	42,8	19,6	23,2	5,8
Koreya Respublikasi	42,3	0,1	42,2	5,7
Qozog`iston	37,4	5,0	32,4	5,1
Germaniya	36,2	0,2	36,0	4,9
Qirg`iz Respublikasi	32,9	32,5	0,4	4,4

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Navoiy viloyati, jahoning 65 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (15,7 %), Rossiya Federatsiyasida (14,7 %), Kanada (10,7 %), Fransiya (10,1 %), Litva (6,1 %), Turkiyada (5,8 %) va Koreya Respublikasida (5,7 %) qayd etilgan.

**NAVOIY
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
HAJMI (yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollarlari)**

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog`iston va Qирг`из Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qozog`iston va Qирг`из Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Fransiya, Litva, Turkiya davlatlari va Koreya Respublikasi hissasiga to`g`ri kelgan.

	Jami mln. AQSh dollar	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Tashqi savdo aylanmasi	738,9	57,4	100,0
MDH davlatlari	206,8	76,2	28,0
Boshqa davlatlar	532,1	52,4	72,0

**NAVOIY
VILOYATINING
HUDUDLAR
BO'YICHA
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
HAJMI (yanvar-
avgust,
ming AQSh
dollarlari)**

Tuman va shahar nomi	Tashqi savdo aylanmasi hajmi	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	738 933,6	57,4
Navoiy sh.	440 753,2	79,8
Zarafshon sh.	27 951,0	3,7 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	155 333,1	149,0
Konimex	3 740,1	160,9
Qiziltepa	30 490,6	114,2
Navbahor	26 909,3	158,6
Nurota	8 254,8	66,6
Tomdi	799,5	119,9
Uchquduq	1 425,5	60,7
Xatirchi	11 802,4	69,0
Bo'linmaydigan hajm	31 474,1	-

2020- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasi 738,9 mln. AQSh dollarini 2019- yilning mos davriga nisbatan 57,4 foizni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to`rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (76,9 mln. AQSh dollarlari), Fransiya (67,4 mln. AQSh dollarlari), Qирг`из Республикаси (32,1 mln. AQSh dollarlari), Turkmaniston (14,0 mln. AQSh dollarlari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAVOIY
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollarlari)**

Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	254,0	211,2	116,3
Eksport	45,1	47,8	28,0
Import	208,9	163,4	88,3
Saldo	-163,8	-115,6	-60,3
Rossiya Federatsiyasi	100,1	125,4	108,9
Eksport	23,3	26,4	23,2
Import	76,8	99,0	85,7
Saldo	-53,5	-72,6	-62,5
Kanada	0,3	0,4	78,9
Eksport	0,2	0,3	77,9
Import	0,1	0,1	1,0
Saldo	0,1	0,2	76,9
Fransiya	99,8	103,9	74,6
Eksport	97,9	102,6	71,0
Import	1,9	1,3	3,6
Saldo	96,0	101,3	67,4
Litva	11,0	8,6	45,0
Eksport	1,4	3,4	2,7
Import	9,6	5,2	42,3
Saldo	-8,2	-1,8	-39,6
Turkiya	34,4	78,5	42,8
Eksport	5,4	12,2	19,6
Import	29,0	66,3	23,2
Saldo	-23,6	-54,1	-3,6
Koreya Respublikasi	30,5	77,9	42,3
Eksport	0,7	0,1	0,1
Import	29,8	77,8	42,2
Saldo	-29,1	-77,7	-42,1

**NAVOIY
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-avgust,
mln. AQSh
dollarlari)**


Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Qozog'iston	48,3	40,3	37,4
Eksport	36,3	5,5	5,0
Import	12,0	34,8	32,4
Saldo	24,3	-29,3	-27,4
Germaniya	37,0	145,2	36,2
Eksport	0,4	0,5	0,2
Import	36,6	144,7	36,0
Saldo	-36,2	-144,2	-35,8
Qirg'iz Respublikasi	8,0	14,9	32,9
Eksport	7,1	14,6	32,5
Import	0,9	0,3	0,4
Saldo	6,2	14,3	32,1
AQSh	38,5	27,1	32,8
Eksport	-	0,1	0,1
Import	38,5	27,0	32,7
Saldo	-38,5	-26,9	-32,6
Turkmaniston	4,3	10,6	15,0
Eksport	2,2	2,5	14,5
Import	2,1	8,1	0,5
Saldo	0,1	-5,6	14,0
Ukraina	7,2	2,0	11,7
Eksport	1,0	1,3	1,5
Import	6,2	0,7	10,2
Saldo	-5,2	0,6	-8,7
Estoniya	1,0	6,7	6,8
Eksport	-	0,3	-
Import	1,0	6,4	6,8
Saldo	-1,0	-6,1	-6,8

**NAVOIY
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollarlari)**

Davlatlar	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Chexiya Respublikasi	1,1	13,5	6,7
Eksport	-	1,3	0,1
Import	1,1	12,2	6,6
Saldo	-1,1	-10,9	-6,5
Yaponiya	68,6	130,6	4,5
Eksport	0,1	5,9	0,2
Import	68,5	124,7	4,3
Saldo	-68,4	-118,8	-4,1
Italiya	5,5	77,6	3,9
Eksport	-	-	-
Import	5,5	77,6	3,9
Saldo	-5,5	-77,6	-3,9
Polsha	1,3	0,4	3,6
Eksport	0,1	-	0,5
Import	1,2	0,4	3,1
Saldo	-1,1	-0,4	-2,6
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	4,9	5,6	3,4
Eksport	-	-	0,2
Import	4,9	5,6	3,2
Saldo	-4,9	-5,6	-3,0
Singapur	0,2	1,6	3,2
Eksport	0,2	0,6	3,0
Import	-	1,0	0,2
Saldo	0,2	-0,4	2,8

**NAVOIY
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH
MAMLAKATLARI
VA BOSHQA
XORIJY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-avgust,
mln. AQSh
dollarri,
ulushi, % da)**

Respublikamizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 28,0 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar- avgust oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan 52,4 % ni, jami TSA dagi ulushi 72,0 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-avgust)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 285,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,2 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (67,7 %), asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari (15,3 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar (6,6 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

**XSST
BO'YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
avgust,
ulushi, % da)**



MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)	XSST tarkibi	ming AQSh dollarari			umumi hajmga nisbatan, % da		
		Jami	MDH davlat- lari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlat- lari	Boshqa davlat- lari
	Jami eksport	285 682,0	78 361,7	207 320,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:							
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9 048,0	7 879,6	1 168,4	3,2	10,1	0,6	
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18 770,8	17 422,1	1 348,7	6,6	22,2	0,6	
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 213,8	119,0	1 094,8	0,4	0,2	0,5	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	193 534,1	15 210,0	178 324,1	67,7	19,4	86,0	
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalan- gan sanoat tovarları	43 604,5	23 928,4	19 676,1	15,3	30,5	9,5	
Mashinalar va transport asbob- uskunaları	2 372,3	183,8	2 188,5	0,8	0,2	1,1	
Turli xil tayyor buyumlar	13 237,5	12 956,8	280,7	4,6	16,5	0,1	
Xizmatlar	3 901,0	662,0	3 239,0	1,4	0,9	1,6	

**MDH
VA BOSHQA
XORIJUY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020- yil
yanvar-avgust)**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning mos davriga nisbatan, turli xil tayyor buyumlar, asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	122,2	151,2	113,9
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	45,4	53,7	22,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	118,9	132,9	50,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	44,1	28,5	46,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	131,1	12,3 b.	121,9
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	139,8	119,0	177,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalarli	28,4	2,2 b.	26,5
Turli xil tayyor buyumlar	13,6 b.	15,1 b.	2,4 b.
Xizmatlar	54,0	49,6	54,9

2020- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 7,2 punktga oshib, 67,7 % ni, asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari 6,1 punktga oshib, 15,3 % ni tashkil etdi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust, ulush
% da)**

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22,9	8,5	3,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	6,8	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	1,2	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,5	63,1	67,7
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	9,2	13,3	15,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,3	3,6	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	-	0,4	4,6
Xizmatlar	1,4	3,1	1,4


**NAVOIY
VILOYATINING
HUDUDLAR
BO'YICHA
EKSPORT HAJMI
(yanvar-avgust,
ming AQSh
dollarri)**

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	285 682,0	122,2
Navoiy sh.	208 165,3	127,7
Zarafshon sh.	2 253,4	2,3 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	21 481,8	117,0
Konimex	981,3	82,0
Qiziltepa	21 060,0	158,5
Navbahor	17 277,8	138,4
Nurota	1 585,6	52,9
Tomdi	432,2	150,2
Uchquduq	945,7	121,4
Xatirchi	6 908,2	79,2
Bo'linmaydigan hajm	4 590,7	-

2020- yil yanvar-avgust oylarida eksport 285,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 122,2 foiz kuzatildi.


	Jami mln. AQSh dollarri	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Eksport hajmi	285,7	122,2	100,0
MDH davlatlari	78,4	151,2	27,4
Boshqa davlatlar	207,3	113,9	72,6

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar- avgust,
mln. AQSh
dollarlari,
ulushi, % da)**



MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 27,4 va 72,6 foizni tashkil etdi.

**NAVOIY
VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-avgust,
% da)**



2020- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 27,3 %), Fransiya (26,4 %), Qirg'iz Respublikasi (11,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (9,8 %), Rossiya Federatsiyasi (8,1 %), Turkiya (6,8 %) va Turkmaniston (5,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagagi ulushi 93,4 foizni tashkil etmoqda.

**NAVOIY
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI
HAJMI VA
O'SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-avgust)**

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yetita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Fransiya bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlilikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 35 tani tashkil etdi.


Davlatlar	Ming AQSh dollarri		2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da	O'rni
	2019- y.	2020- y.		
Kanada	315,4	77 985,9	247,3	1
Fransiya	102 631,9	71 005,9	69,2	2
Qirg'iz Respublikasi	14 647,7	32 503,4	2,2 b.	3
Xitoy Xalq Respublikasi	47 810,8	28 020,6	58,6	4
Rossiya Federatsiyasi	26 422,6	23 157,0	87,6	5
Turkiya	12 164,1	19 567,4	160,9	6
Turkmaniston	2 459,5	14 516,7	5,9 b.	7
Qozog'iston	5 540,6	5 016,1	90,5	8
Singapur	614,1	3 023,4	4,9 b.	9
Litva	3 372,9	2 704,6	80,2	10
Ukraina	1 256,6	1 553,9	123,7	11
BAA	243,4	801,4	3,3 b.	12
Ozarbayjon	193,4	620,0	3,2 b.	13
Afg'oniston	574,0	572,3	99,7	14
Tojikiston	748,5	562,5	75,2	15
Polsha	3,0	495,8	165,8 b.	16
Pokiston	342,1	358,9	104,9	17
Belarus Respublikasi	350,3	317,2	90,5	18
Iraq	428,7	309,8	72,3	19
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	17,5	246,7	14,1 b.	20

**NAVOIY
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN
EKSPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-avgust,
ming AQSh
dollarlari)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlari kiradi.

XSST tarkibi	Kanada		Fransiya		Qirg'iz Respublikasi	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Jami eksport	315,4	77 985,9	102 631,9	71 005,9	14 647,7	32 503,4
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar			21,0		10 171,9	3 035,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari					1 658,2	8 514,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar					0,2	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar			77 695,2	102 610,9	71 005,9	229,9
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	315,4	290,7			2 134,8	5 922,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar					2,0	35,2
Turli xil tayyor buyumlar					450,1	11 702,3
Xizmatlar					0,6	

**XIZMATLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-avgust,
ulushi, % da)**



Xizmatlar eksporti hajmi 3,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,4 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 54,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (69,7 %), safarlar (turizm xizmatlari) (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (7,4 %), va boshqa xizmatlar (4,1 %) hissasiga to`g`ri kelgan.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(2020- yil
yanvar-
avgust,
ming AQSh
dollarlari)**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 7 397,1 ming AQSh dollar qiymatli 8 673,9 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2019- yilning mos davriga nisbatan 37,8 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 2,6 foizni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 2 601,2 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 2 144,6 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 1 073,1 ming AQSh dollarini, Zarafshon shahrida 537,9 ming AQSh dollarini va Navoiy shahrida 462,7 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.

Qiziltepa	2 601,2	Zarafshon sh.	537,9	Uchquduq	118,2
Karmana	2 144,6	Navoiy sh.	462,7	Nurota	73,6
Xatirchi	1 073,1	Navbahor	368,0	Konimex	17,7

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg`iz Respublikasi (41,8 %), Rossiya Federatsiyasi (34,3 %), Qozog`iston (9,4 %) va Belarus Respublikasi (4,3 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	tonna	ming AQSh dollarri	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollarri	ulushi*, % da
Qirg'iz Respublikasi	2 778,7	10 332,9	52,8	1 452,1	3 090,7	41,8
Rossiya Federatsiyasi	1 122,7	576,8	2,9	3 782,9	2 551,1	34,3
Qozog'iston	7 819,8	3 194,1	16,3	1 404,7	693,1	9,4
Belarus Respublikasi	884,0	345,9	1,8	628,8	317,1	4,3
Iraq	690,5	404,7	2,1	280,1	212,6	2,9
Afg'oniston	257,2	326,1	1,7	521,8	118,2	1,6
Gruziya	241,3	141,8	0,7	107,0	117,5	1,6
Pokiston	72,0	192,0	1,0	48,0	72,0	1,0
Xitoy Xalq Respublikasi	1 223,8	985,1	5,0	51,2	50,4	0,7
Birlashgan Arab Amirliklari	202,6	219,7	1,1	12,4	43,6	0,6
Turkmaniston	143,9	50,2	0,3	21,5	33,9	0,5
Ukraina	507,7	80,7	0,4	59,6	32,7	0,4
Latviya	-	-	-	173,4	23,3	0,3
Estoniya	517,2	134,2	0,7	108,0	20,2	0,3
Moldova Respublikasi	182,5	138,1	0,7	17,5	15,5	0,2
Koreya Respublikasi	10,4	52,6	0,3	5,0	5,0	0,1
Boshqa davlatlar	6 315,0	2 411,8	12,2	-	-	-

*-qiymat ifodasidan




NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-avgust)

**XSST
BO`YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-avgust,
ulushi, % da)**

2020- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 453,2 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 43,0 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (60,0 %), asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari (13,5 %), kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (13,1 %) ga to`g`ri keldi.



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020- yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi 437,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 16,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

	XSST tarkibi	Ming AQSh dollarari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	453 251,6	129 416,9	323 834,7	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:							
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5 855,9	3 505,0	2 350,9	1,3	2,7	0,7	
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2 683,5	1 017,6	1 665,9	0,6	0,8	0,5	
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	519,8	87,9	431,9	0,1	0,1	0,1	
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlara	1,3	-	1,3	0,0	-	0,0	
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	59 449,4	12 027,4	47 422,0	13,1	9,3	14,6	
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangar sanoat tovarlari	61 331,8	36 202,4	25 129,4	13,5	27,9	7,8	
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	271 924,6	52 034,9	219 889,7	60,0	40,2	67,9	
Turli xil tayyor buyumlar	35 307,8	20 561,9	14 745,9	7,8	15,9	4,6	
Xizmatlar	16 177,5	3 979,8	12 197,7	3,6	3,1	3,8	

**MDH VA
BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O`SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil yanvar-
avgust)**

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (60,0 %), asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari (13,5 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (13,1 %), shuningdek MDH mamlakatlarda mashinalar va transport asbob-uskunalarini (40,2 %), asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari (27,9 %) ga to'g'ri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalarini (67,9 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (14,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	43,0	58,9	38,8
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	65,0	50,1	116,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	65,7	43,9	94,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,1	1,8	29,2
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlara	2,3	-	19,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	96,1	113,1	92,6
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	43,8	96,1	24,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	36,5	36,8	36,4
Turli xil tayyor buyumlar	49,4	165,9	25,0
Xizmatlar	125,4	123,3	126,1

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-
avgust,
ulush % da)**

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2019 yilning mos davriga nisbatan faqat xizmatlar o'sgan (25,4 foiz), ammo barcha import qilinadigan tovarlar 2019 yilning mos davriga nisbatan kamaydi.

XSST tarkibi	2018- y.	2019- y.	2020- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,1	0,9	1,3
Ichimliklar va tamari	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,4	0,6	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	9,9	5,9	13,1
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat tovarlari	20,4	13,3	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	65,1	70,8	60,0
Turli xil tayyor buyumlar	1,9	6,8	7,8
Xizmatlar	1,6	1,2	3,6

2020- yil yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar 2019- yilning mos davriga nisbatan importining ulushi 5,9 % dan 13,1 % gacha, xizmatlar importining ulushi esa 1,2 % dan 3,6 % gacha o'sdi.

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 28,6 va 71,4 foizni tashkil etdi.

**NAVOIY
VILOYATINING
HUDUDLARI
BO'YICHA
IMPORT HAJMI
(yanvar-
avgust,
ming AQSh
dollarlari)**


Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	453 251,6	43,0
Navoiy sh.	232 587,9	59,7
Zarafshon sh.	25 697,6	4,0 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	133 851,3	155,8
Konimex	2 758,8	2,4 b.
Qiziltepa	9 430,6	70,4
Navbahor	9 631,5	2,1 b.
Nurota	6 669,2	70,9
Tomdi	367,3	96,8
Uchquduq	479,8	30,6
Xatirchi	4 894,2	58,4
Bo'linmaydigan hajm	26 883,4	-

2020- yil yanvar-avgust oylarida import 453,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 43,0 foiz kuzatildi.

	Jami mln. AQSh dollarlari	2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Import hajmi	453,2	43,0	100,0
MDH davlatlari	129,4	58,9	28,6
Boshqa davlatlar	323,8	38,8	71,4




**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLAT-
LARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-
avgust,
mln. AQSh
dollarini,
ulush % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Litva, Koreya Respublikasi, Germaniya, AQSh va Qozog'iston) jami importning 79,3 % ini tashkil qiladi, bu 359,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**NAVOIY
VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-avgust,
% da)**



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Litva va Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**TOVAR VA
XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK
HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-
avgust)**


Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 19,5 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (18,9 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2019- yilning yanvar-avgustiga	O`rni
	2019- y.	2020- y.		
Xitoy Xalq Respublikasi	163 400,7	88 324,2	54,1	1
Rossiya Federatsiyasi	98 972,9	85 722,6	86,6	2
Litva	5 168,0	42 252,0	8,2 b.	3
Koreya Respublikasi	77 800,1	42 244,3	54,3	4
Germaniya	144 684,3	36 040,4	24,9	5
AQSh	27 045,6	32 760,0	121,1	6
Qozog'iston	34 828,9	32 352,4	92,9	7
Turkiya	66 292,6	23 250,2	35,1	8
Ukraina	718,6	10 155,4	14,1 b.	9
Estoniya	6 363,6	6 846,0	107,6	10
Chexiya Respublikasi	12 187,5	6 615,8	54,3	11
Yaponiya	124 656,0	4 321,0	3,5	12
Italiya	77 606,0	3 916,4	5,0	13
Fransiya	1 249,0	3 591,0	2,9 b.	14
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	5 612,4	3 163,2	56,4	15
Polsha	410,5	3 082,9	7,5 b.	16
Ispaniya	33 670,1	3 009,7	8,9	17
Latviya	295,9	2 768,5	9,4 b.	18
Finlyandiya	23,9	2 716,0	113,4 b.	19
Hindiston	27 679,1	2 688,7	9,7	20

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha 58 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 16,1 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (38,7 %) va transport xizmatlari (35,5 %) dan iborat bo'ldi.

**XIZMATLAR
IMPORTI
TARKIBI
(2020- yanvar-
avgust, ulushi,
% da)**



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'limoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rinnegallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel (99879) 222-04-36**